

## FARZAND TARBIYASIDA OILANING VA MAKTABLARDAGI PSIXOLOGIK O'RNI

**Melisova Nigora Quanishbaevna**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro't tumani 34-sonli maktab psixologi

Bola tarbiyasi mavzusi — bepoyon, serqirra, cheksiz va umuman oddiy odamlar qabul qilishi mushkul masala. Har yili dunyo bo'yicha bolalar tarbiyasiga bag'ishlangan tonnalab kitob va risolalar chop etiladi, biroq yuz yil muqaddam bo'lgani kabi aksariyat ota-onalar gapga kirmaydigan bolalar muammosiga duch kelaverishadi. Ana shu ota-onalarga muammolarni hal etishda quyidagi mezonlar asqatadi. Bolani yaxshi hulqi uchun doimo maqtang. Afsuski, aksariyat ota-onalar bolani yomon ishi uchun jazolashadi-yu, yaxshi ishiga kelganda shunga majbur deb hisoblashadi. Aslida bola o'z xatti-harakatlarini endi to'g'rilay boshlagan bo'ladi, «yaxshi» va «yomon» baho hali u uchun begona. Shunda u yaqinlarining bahosiga qarab ish tutishga harakat qiladi. Yaxshi xulqi va gapga kirganligi uchun maqtang, rag'batlantiring, shunda u aynan siz xohlagandek ish tutishga jon-jahdi bilan intiladi.

Agar go'dak injiqlik qilsa va o'zini yaxshi tutmasa — uni shaxs sifatida ayblamang! Faqat muayyan vaziyatdagi xatti-harakati uchun ayblang. Masalan: o'g'ilchangiz bolalar maydonchasida o'zini yomon tutdi — boshqalarni turtkiladi, xafa qildi, ularning o'yinchoqlarini olib qo'ydi deylik. Kattalar ko'pincha: «Sen yomon bolasan, sen qizg'anchiqsan!» deyishga odatlanishgan. Mana shu holat bolani shaxs sifatida ayblashga yaqqol misol bo'la oladi. Agar bunday ayblovlar tizimli ravishda takrorlanaversa — bolakay chindan ham yomonga aylanadi. Unga to'g'ri tanbeh bering: «Sen nega o'zingni yomon tutyapsan? Nega boshqalarni turtkilab, xafa qilyapsan? Faqat yomon bolalar boshqalarni ranjitadi, axir sen yaxshi bolasan-ku! Sen esa bugun o'zingni yomon bolalardek tutyapsan — seni jazolashimga to'g'ri keladi...». Shunda bola aslida o'zi yaxshi ekanligini, uni yaxshi ko'rishlarini va hurmat qilishlarini, faqat uning bugungi hulqi — noto'g'ri ekanligini anglab yetadi.

-Farzandingizning yoshi va rivojlanishini hamisha hisobga oling.

- Bolaga qo'yayotgan talablar oqilona bo'lsin.
- Yomon hulqi uchun vaqtida jazolash lozim (3 yoshli bolani ertalab ovqatni to'kib qo'ygani uchun kechki multfilmmdan mosuvo qilmang — kichkintoy xato bilan jazoning bog'liqligini tushunib yetmasligi mumkin).
- Bolani jazolayotganda o'zingiz xotirjam bo'lishingiz kerak.
- Buni psixologlar tasdiqlashi mumkin: har qanday suhbatdosh, jumladan, bola ham (u qanchalik kichkina bo'lmasin) baqirmasdan, xotirjam gapirsangiz, sizni yaxshiroq tushunadi.
- Bola bilan gaplashayotganda (ayniqsa, u quloq solmaganda, xarxasha va injiqlik qilganda, siz esa jahlingiz chiqib, xafa bo'lgan vaziyatlarda) doimo muomalangizga e'tibor bering — siz bilan bunday ohangda gaplashishlarini axir o'zingiz ham xohlamasangiz kerak.
- Bola sizni tushunayotganiga hamisha ishonch hosil qilishingiz kerak.
- Nima to'g'ri-yu, nima noto'g'riligiga o'z misolingizda o'rnak bo'lsangiz, yaxshiroq samara beradi. Boshqacha qilib aytganda, «Mening aytganimni bajar»dan ko'ra «Men kabi bajar» bolani samaraliroq tarbiyalaydi. Ular sizdan ibrat olsin, unutmang, qush uyasida ko'rganini qiladi.
- Ota-ona, ya'ni katta odam sifatida hamisha qarorlaringizni qaytadan ko'rib chiqishga tayyor bo'ling. Ayniqsa, bu 10 yoshli va undan katta bolalarning ota-onalariga taalluqli. Bu yoshda bola muzokaraga kirisha oladi, dalil va isbotlar keltirishga qodir bo'ladi. U xulosani doimo siz chiqarishingizni, lekin uni tinglashga tayyorligingizni va muayyan vaziyatlarda o'z fikringizni farzandingiz foydasiga o'zgartira olishingizni tushunishi darkor.
- Bolaning xatti-harakatlari (ayniqsa, bu yomon ishlar bo'lsa) qanday natijalarga olib kelishini tushuntirishga harakat qiling. Agar go'dak karavotchasidan o'yinchoqlarini otsa — ularni olib bermang: shunda mittivoy uning bu xatti-harakati o'yinchoqlardan

judo qilishini tezda anglab yetadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir.

Oila-jamiyatning tayanchi. Farzandlarimiz ongida elu yurtga, Vatanga muhabbat tuyg'ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo'lishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda o'sib-unayotgan bolalarimizga bog'liq.

Oila, odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. "Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona" degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o'zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog'lik muhim ekanini bildiradi. Oiladagi muhit ota-ona o'z ma'suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo'ladi. Bolalarning odobli bo'lib ulg'ayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir. "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deb bejiz aytmagan xalqimiz.

Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida olijanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o'z odatlari bilan ba'zan o'zlari sezmagan holda ularga ta'sir qiladilar. Oiladagi qo'pol munosabatlar, ko'p yolg'on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan nosog'lom muhitni keltirib chiqaradi.

Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o'rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib, kaltak yeb katta bo'lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta'sir qiladi. Bu esa o'z navbatida oiladagi nosog'lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan "ma'naviy kasal" insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma'naviyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oilada ota-onalar "ommaviy madaniyat" ta'siriga berilib ketishi oqibatidafarzandlarning tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda

oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi shundaki, birinchidan, jamiyat taraqqiy etib borgan sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bu esa oilada bolaga estetik, jinsiy tarbiya, axloqiy tarbiya berish sifati va ko'lamini oshirish talabini qo'yadi.

Ta'lim-tarbiya, odob-axloq bolalikdan berilgani ma'qul. Farzand tarbiyasi jarayonida bola huquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Sharq allomalari o'z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta'lim berish, uni ma'rifatu-madaniyatga yetaklash muammolariga e'tibor berganlar. Ota-bobolarimiz azaldan o'g'il qizlarning go'zal xulqli, odobli bo'lishiga katta ahamiyat berganlar. Farzand tarbiya qilganda odatda o'g'il bolalar tarbiyasi bilan ko'proq ota, qiz bola tarbiyasi bilan esa ona shug'ullanadi. Albatta bunda farzandning saviyasini inobatga olish muhim. Bolani biror-bir yutuqqa erishishida, natijani ko'rishga shoshmaslik kerak. Masalan ikki yoshgacha faqat shirin so'z bilan, erkalash orqali tarbiya qilinadi. Besh yoshgacha bola atrofni o'rganadi, asosiy ma'lumotni shu yosh oralig'ida egallaydi. Bu davrda biz ko'proq amaliy jihatdan namuna bo'lishga urinishimiz, sog'lom oilaviy muhitni yaratishimiz zarur bo'ladi.

Oilada otaning bolalariga loqayd bo'lishi oxiri xunuk oqibatlariga sabab bo'ladi. Loqaydlik yomon illat bo'lib, u bola tarbiyasining buzilishiga katta yo'l ochadi. Ota sustkashlik qilib, burchini ado etmagani va manfaatli ilm hamda yaxshi amalni o'rgatmagani oqibatida o'z farzandidan zarur ijobiy hislatlarni shakllantira ololmagan. Farzand ham otasining yaxshi tarbiyasidan mahrum bo'lib o'sadi. Keyingi davr esa bir oz talabchanlik va intizomni talab etadi. Bu davr o'smirlik payti bo'lib, bola oq-qorani ayni shu davrda ajratadi. Yaxshilikka mukofot, yomonlikka jazo muqarrarligini shu bosqichdan o'rganadi. Bu davrda farzand to'g'ri yo'lga olinsa, tarbiyali do'stlarga hamroh qilinsa, uning odobli bo'lib, yaxshi inson bo'lishi uchun muhim qadam qo'yiladi. Odatda onalar o'z bolalarining xato va kamchiliklarini otasidan yashirishga harakat qiladilar. Aytsam urishadi, bolamga qattiq tegadi deb, yo'l qo'ygan xatolari,

qo'l urgan yomon ishlarini otaga aytmaydilar. Oqibatda bola o'z vaqtida tanbeh olmaganidan keyin bora-bora kattaroq jinoyatlarni ham qo'rqmasdan qilaverishi mumkin.

Mehr-muhabbat berishda ham me'yorni saqlay bilish kerak. bolaning barcha aytganlarini qilish, barcha to'g'ri-noto'g'ri xatti-harakatlarini ma'qullash yoki xatto indamaslik farzandning umuman tarbiyasiz bo'lib o'sishiga olib keladi. Ortiqcha taltaytirib erkalash bolani har jihatdan sustlashtirib qo'yadi, mehr ko'rsatish esa uni yanada faol bo'lishga undaydi. Erka o'sgan bola faqatgina shaxsiy manfaatlarini ko'zlaydigan, ma'suliyatsiz bo'lib voyaga yetadi. Shuning uchun farzandning barkamol inson bo'lib yetishida onaning xizmati juda zarur va muhimdir. Bolalik chog'ida farzandning qalbi o'ta yumshoq va ta'sirga beriluvchan bo'ladi. Shu bois diniy ta'limotlarda bolalarni mehr bilan erkalash, farzandning bolalik davrini xursand o'tkazishga alohida e'tibor qaratiladi. Ayniqsa, qiz bolaning ko'ngli nozik bo'lishini hisobga olib, ularga alohida mehr ko'rsatishga chaqiriladi.

Diniy ta'limotlarda ota-ona o'z farzandlariga ta'lim-tarbiya berishi ham dolzarb vazifalardan deb qaraladi. Bu haqda Muhammad (alayhissalom): "Farzandlaringizga ta'lim bering, chunki ular sizniki bo'lmagan vaqt uchun tug'ilganlar", deb har bir ota-onani bolaning o'z zamonasi ilm-fani, ta'limiga befarq qaramaslikka chaqirganlar. Tarbiyada eng muhim vosita bu mehr va shirinso'zlik bilan tarbiyalashdir. Bu ikki vosita bir bo'lib, bolani shakllantiradi. Shu jumladan, ta'limni ham g'azab va jazolash bilan amalga oshirmagan ma'qul. Zero, zo'rlab berilgan ta'lim bola xotirasidan tezda o'chib ketadi. Oqibatda uning shu sohaga nisbatan qiziqishi so'nishi mumkin. Bundan ko'rinadiki, ta'limning avvali ham yaxshi tarbiyadan boshlanadi.

Bugungi kunda farzand tarbiyasida ijtimoiy muammolardan; uyali telefonlardagi tajovuzliklar hamda Ijtimoiy tarmoqlar to'ri tabora avj olmoqda. Ushbu zamonaviy kommunikatsiya vositalari muhim aloqa vositalari bo'lishi bilan birga ba'zi ma'naviyati to'liq shakllanmagan sust yoshlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoq ta'siriga tushib qolgan yoshlarga ota-onalar, o'quv muassasalari bilan

birgalikda yondoshib aloqa vositalarining asl mohiyatini tushuntirib berishlari lozim. Tarbiyadan tashqaridan bo'ladigan salbiy ta'sir bu, eng katta xatardir. Chunki farzandga oilada bu boradagi erkinlikka yo'l qo'yilmagach, u o'z qiziqish va rag'batlarini qondiradigan sabablarni tashqaridan izlay boshlaydi. Demak, ota-ona farzandining tashqi hayotiga ham katta e'tibor qaratishi talab etiladi. Ya'ni, ular farzandi maktab yoki kollejdani keyin qaerga borishi, nima bilan shug'ullanishini nazorat qilish lozim. Farzandga bilim olish uchun sharoit yaratish ham ota-onaning vazifasidir. Yosh avlod yetuk va komil shaxs bo'lib voyaga yetishi uchun yana bir muhim omil hayot tarziga aylanishi zarur. U ham bo'lsa "kitobxonlik". Buning uchun yurtimizda barcha sharoitlar yaratilgan. Ommaviy, ilmiy kutubxonalar, "Aybuk" tarzidagi kitob-kafe do'konlari va boshqalar so'zimizning yaqqol misolidir.

Ota-ona farzandiga vaqtni unumli o'tkazishni o'rgatishida vosita sifatida foydalanishi mumkin bo'lgan usullardan yana biri-zamonaviy axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanishdir. Ota-ona bolada estetik tarbiya, go'zal manzaralardan zavq olish hissini shakllantirish uchun uni o'zi bilan birga tabiatdagi manzarali joylarga, muzeylarga olib borishi va shu bilan birga uning qalbida go'zallik latofatini singdirishi muhim. Xulosa qilib aytish mumkinki, mustahkam ma'naviy immunitetli, o'zining fikrlarini ravon ayta oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-ona, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: "O'zbekiston", 2017. – 104 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: "O'zbekiston", 2017. – 32 b.

3. Andreyeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. Uchebnik dlya visshix uchebnix zavedeniy / G.M. Andreyeva. – 5-ye izd., ispr. i dop. – M.: Aspekt Press, 2003. – 364 s.
4. Gaffarov A.Z., Yugay A.X. Pedagogik amaliyot. Toshkent, 2002.
5. G'oziyev E.G'. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). T., O'qituvchi, 1994.
6. Davletshin M.G., Do'stmuxamedova Sh.A., To'ychiyeva S.M., Mavlonov